



YASHIL MOLIALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, MAZMUNI VA IQTISODIY AHAMIYATI

PhD Turg'unov Jasurbek

Qo'qon universiteti

ORCID: 0000-0002-1161-8960

turgunov.jasurbek1123@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari, mazmuni, ahamiyati hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida yashil moliyalashtirish tushunchasiga berilgan turli ilmiy yondashuvlar umumlashtirilib, uning iqlim o'zgarishini yumshatish va moslashuv jarayonlaridagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, yashil moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlari, moliyaviy instrumentlari hamda global yashil moliya bozorining rivojlanish tendensiyalari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari yashil moliyaning ekologik barqarorlik, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashdagi muhim strategik mexanizm ekanini ko'rsatadi hamda ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil moliyalashtirish, yashil moliya bozori, barqaror rivojlanish, yashil investitsiyalar, yashil obligatsiyalar, ESG mezonlari, iqlim moliyasi, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik barqarorlik.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ, СОДЕРЖАНИЕ И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЗЕЛЕННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ

PhD Тургунов Жасурбек

Университет Коканда

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы, содержание, значение и роль зеленого финансирования в обеспечении устойчивого развития. В рамках исследования обобщены различные научные подходы к концепции зеленого финансирования и подчеркнута его важность в процессах смягчения последствий изменения климата и адаптации к ним. Также проанализированы основные направления зеленого финансирования, финансовые инструменты и тенденции развития мирового рынка зеленого финансирования. Результаты исследования показывают, что зеленое финансирование является важным стратегическим механизмом обеспечения экологической устойчивости, экономического роста и социального благополучия, и сформулированы выводы и предложения по развитию этой области.

Ключевые слова: зеленое финансирование, зеленый финансовый рынок, устойчивое развитие, зеленые инвестиции, зеленые облигации, критерии ESG, климатическое финансирование, возобновляемая энергия, экологическая устойчивость.

THEORETICAL BASIS, CONTENT AND ECONOMIC SIGNIFICANCE OF GREEN FINANCING

PhD Turgunov Jasurbek
Kokand University

Abstract. *This article analyzes the theoretical foundations, content, significance and role of green financing in ensuring sustainable development. Within the framework of the study, various scientific approaches to the concept of green financing are summarized, and its importance in climate change mitigation and adaptation processes is highlighted. Also, the main directions of green financing, financial instruments and development trends of the global green finance market are analyzed. The results of the study show that green finance is an important strategic mechanism for ensuring environmental sustainability, economic growth and social well-being, and conclusions and proposals for the development of this area have been developed.*

Keywords: *green financing, green financial market, sustainable development, green investments, green bonds, ESG criteria, climate finance, renewable energy, environmental sustainability.*


Kirish.

Global ekologik muammolarning tobora keskinlashuvi sharoitida yashil moliyalashtirishning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Parij kelishuvi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) davlatlar va korporatsiyalarni barqaror moliyaviy amaliyotlarni joriy etishga undamoqda. Uglarod izini kamaytirishga qaratilgan loyihalarda ishtirokni kengaytirish, bioxilma-xillikni saqlash hududlarini yaratish hamda energiya o'tish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash orqali yashil moliyalashtirish ushbu xalqaro maqsadlarga erishishga yordam beradi. yashil moliyalashtirish iqtisodiy o'sish va atrof-muhitni muhofaza qilish o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlashga qaratilgan. U nafaqat moliyaviy daromad olishga, balki sayyoraning ekologik holatini yaxshilashga xizmat qiluvchi investitsiyalarga resurslarni yo'naltirishni nazarda tutadi. Shu orqali yashil moliyalashtirish iqlim o'zgarishi muammolari hamda barqaror iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq muammolarni bir vaqtning o'zida hal etishga xizmat qiladi.

UNEP ma'lumotlariga ko'ra, yashil moliyalashtirish - bu bank tizimi, mikroqarzlash, sug'urta va investitsiyalar orqali davlat, xususiy hamda notijorat sektorlaridan barqaror rivojlanish ustuvor yo'nalishlariga yo'naltiriladigan moliyaviy oqimlar hajmini oshirishdir.¹ Amaliyotda ushbu tushuncha turlicha talqin etilishi mumkin: ayrim hollarda ekologik ta'sir asosiy mezon sifatida qaraladi, biroq ko'p hollarda ekologik ta'sir moliyaviy daromad olish imkoniyati bilan bir qatorda baholanadi. Har qanday holatda ham asosiy maqsad - moliyaviy resurslarning atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'minlashdan iborat.

Yashil moliyalashtirish yashil investitsiyalarni moliyalashtirish, yashil moliya tizimi hamda jamoat yashil loyihalarini moliyalashtirish o'rtasidagi o'zaro uzviy bog'liqlik asosida shakllanadi. Ushbu yo'nalishlarning uyg'unlashuvi ekologik jihatdan barqaror loyihalarga moliyaviy resurslarni samarali yo'naltirish, davlat va xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish hamda ijtimoiy ahamiyatga ega tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Natijada, yashil moliyalashtirish iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi (1-rasm).

¹ www.unep.org – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi



1-rasm. Yashil moliyalashtirish komponentlari

Manba: muallifning ishlanmasi.

Adabiyotlar sharhi.

Bugungi kunga qadar “yashil moliya” (green finance) tushunchasining aniq va umumiy qabul qilingan ta’rifi mavjud emas. Buning ikki asosiy sababi bor. Birinchidan, ko’plab ilmiy nashrlar ushbu atamaga ta’rif berishga umuman urinmaydi — masalan, na IFC (2013), na Spratt va Griffith-Jones (2013) o’z ishlarida yashil moliyaga ta’rif keltirgan. Ikkinchidan esa, mavjud ta’riflar bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Adabiyotlarda uchraydigan kam sonli ta’riflar orasida quyidagilarni keltirish mumkin:

Höhne, Khosla, Fekete va Gilbert (2012) ta’rifiga ko’ra, yashil moliya - bu barqaror rivojlanish loyihalari va tashabbuslariga, ekologik mahsulotlarga hamda yanada barqaror iqtisodiyot rivojlanishini rag’batlantiruvchi siyosatlariga yo’naltiriladigan moliyaviy investitsiyalarni anglatadigan keng qamrovli tushunchadir. Yashil moliya iqlim moliyasini o’z ichiga oladi, biroq faqat u bilan cheklanmaydi. Shuningdek, u boshqa ekologik maqsadlarni ham qamrab oladi, jumladan sanoat ifloslanishini nazorat qilish, suv ta’minoti va sanitariya tizimlarini yaxshilash yoki biologik xilma-xillikni muhofaza qilish kabi yo’nalishlarni o’z ichiga oladi.

Iqlimni yumshatish (mitigatsiya) va moslashuv (adaptatsiya) moliyasi esa bevosita iqlim o’zgarishi bilan bog’liq faoliyatlarga taalluqlidir. Mitigatsiya moliyaviy oqimlari issiqxona gazlari (GHG) emissiyasini kamaytirish yoki ularning oldini olishga xizmat qiluvchi loyihalar va dasturlarga yo’naltirilgan investitsiyalarni anglatadi. Zadek va Flynn (2013) ta’kidlashicha, yashil moliya atamasi ko’pincha yashil investitsiya tushunchasi bilan o’zaro almashlab qo’llaniladi. Biroq amaliyotda yashil moliya tushunchasi Bloomberg New Energy Finance va boshqa manbalar tomonidan belgilangan investitsiya ta’rifidan ko’ra kengroq doirani qamrab oladi. Eng muhim jihati shundaki, yashil moliya tarkibiga yashil investitsiyalar doirasiga kiritilmaydigan operatsion xarajatlar ham kiradi. Xususan, bunga loyiha tayyorlash hamda yer uchastkalarini sotib olish bilan bog’liq xarajatlar kiradi, ular nafaqat sezilarli miqdorga ega, balki alohida moliyalashtirish muammolarini ham yuzaga keltirishi mumkin.

Pricewaterhouse Coopers Consultants (PWC) (2013) ta’rifiga ko’ra, bank sektori uchun yashil moliya - bu kreditlash bo’yicha qarorlar qabul qilish jarayonida, kredit ajratilgandan keyingi monitoring hamda risklarni boshqarish jarayonlarida ekologik omillarni hisobga olgan holda taqdim etiladigan moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar majmuasidir. Ushbu mahsulot va xizmatlar ekologik jihatdan mas’uliyatli investitsiyalarni rag’batlantirish, shuningdek past uglerodli texnologiyalar, loyihalar, tarmoqlar va biznes subyektlarining rivojlanishini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan.


Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda ilmiy abstraksiya, mantiqiy tahlil, tizimli yondashuv hamda taqqoslama tahlil usullaridan foydalanildi. Yashil moliyalashtirish tushunchasining iqtisodiy mazmunini aniqlashda yetakchi xalqaro tashkilotlar (UNEP, BMT), konsalting kompaniyalari va ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan nazariy qarashlar tahlil qilindi. Shuningdek, yashil moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlari aniqlashda grafik tahlil usullaridan foydalanildi. Global yashil moliya bozori rivojlanish tendensiyalarini baholashda statistik ma'lumotlar tahlil amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar.

Yashil moliya global moliya tizimini iqlim va barqaror rivojlanish maqsadlarini qo'llab-quvvatlash yo'nalishida muhim rol o'ynaydi. U moliyaviy kapital oqimlarini atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi loyihalarga yo'naltirib, uglerod intensiv faoliyat turlaridan uzoqlashtiradi hamda past uglerodli iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtiradi. 2024-yilda energiya o'tish sohasiga yo'naltirilgan global investitsiyalar hajmi 2,1 trillion AQSh dollaridan oshib, tarixiy eng yuqori ko'rsatkichga yetdi va iqlimga moslashtirilgan moliyalashtirishning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatdi. Shuningdek, yashil moliya Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari hamda Parij kelishuvida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga bevosita hissa qo'shdi.

Yashil moliyalashtirish barqaror rivojlanishni ta'minlash, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan muhim moliyaviy mexanizm hisoblanadi. Ushbu tizim doirasida turli yo'nalishlar shakllangan bo'lib, ularning har biri ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarga erishishda alohida ahamiyat kasb etadi. (2-rasm)



2-rasm. Yashil moliyalashtirish yo'nalishlari

Manba: muallifning ishlanmasi.

Mazkur rasmda yashil moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlarini tizimli tarzda yoritib beradi. Markazda joylashgan "yashil moliyalashtirish yo'nalishlari" atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan moliyaviy mexanizmlarning umumiy asosini ifodalaydi.

Birinchidan, iqlim yumshatish va iqlim o'zgarishiga moslashish yo'nalishlari global iqlim xatarlarini kamaytirish hamda ularning salbiy oqibatlariga moslashishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu yo'nalishlar issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirish, iqlimga chidamli infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirishni nazarda tutadi.

Ikkinchidan, qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorligi yo'nalishlari energiya resurslaridan oqilona foydalanish, uglerodga bog'liqlikni kamaytirish hamda ekologik toza energiya manbalarini keng joriy etishga xizmat qiladi. Bu esa uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni mustahkamlaydi.

Uchinchidan, chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash, shuningdek sanoat chiqindilari bilan bog'liq yo'nalishlar atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish, resurslarni qayta aylanishga kiritish orqali "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini amalga oshirishga qaratilgan. Bu yo'nalishlar ekologik bosimni kamaytirish bilan birga yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi.


Shuningdek, suvning ifloslanishi va bioxilma-xillikni himoyalash yo'nalishlari tabiiy ekotizimlarni saqlash, suv resurslarini muhofaza qilish va biologik resurslarning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu yo'nalishlarga yo'naltirilgan moliyalashtirish ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, rasmda keltirilgan barcha yo'nalishlar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, yashil moliyalashtirish orqali ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarga bir vaqtning o'zida erishish imkonini beradi. Bu esa barqaror rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Yashil moliya bozori atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan moliyaviy instrumentlar va institutlar majmuasini ifodalaydi. Ushbu bozor doirasida ekologik jihatdan barqaror loyihalarni moliyalashtirishga xizmat qiluvchi yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, iqlim fondlari va ESG-investitsiyalar muhim o'rin egallaydi. So'nggi yillarda yashil moliya bozori global miqyosda jadal rivojlanib, iqtisodiy o'sish bilan ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda. Davlat siyosatida ekologik talablarning kuchayishi, xalqaro iqlim kelishuvlari, shuningdek xususiy sektor va moliya institutlarining barqarorlikka yo'naltirilgan strategiyalari ushbu bozor kengayishining asosiy omillari hisoblanadi.(3-rasm)

Global yashil moliya bozori kelgusi yillarda barqaror va jadal rivojlanishi kutilmoqda. Tahlillarga ko'ra, 2024-yilda mazkur bozor hajmi 4 077,4 mlrd AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda, 2035-yilga kelib esa ushbu ko'rsatkich 10 207,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etishi kutilmoqda. 2025–2035-yillar davomida bozorning yillik murakkab o'sish sur'ati 8,7 % darajasida bo'lishi yashil moliyaning global moliya tizimidagi ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi. Ushbu o'sish asosan davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish mexanizmlarining kuchayishi, zamonaviy moliyaviy va ekologik texnologiyalarning joriy etilishi hamda jamiyatda barqaror rivojlanish va ekologik masalalarga bo'lgan e'tiborning oshishi bilan izohlanadi.

Shu jihatdan, yashil moliya bozori nafaqat ekologik muammolarni hal etishga xizmat qiluvchi muhim moliyaviy instrument, balki global iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda. Yashil moliya bozori jadal rivojlanib, barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim moliyaviy mexanizm sifatida shakllanib bormoqda va quyidagi o'zgarishlar Keskin amalga oshmoqda.



3-rasm. Yashil moliya bozorining tarkibi

Manba: muallifning ishlanmasi.

Yashil obligatsiyalarning rivojlanishi. Yashil obligatsiyalar emissiyasi ekologik toza loyihalarni moliyalashtirishning ustuvor mexanizmi sifatida tobora keng qo'llanilmoqda. Ushbu moliyaviy instrumentlar qayta tiklanuvchi energiya va barqaror infratuzilma kabi atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi tashabbuslarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan. Ularning ommalashuvi investorlar orasida barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga bo'lgan intilish kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

ESG mezonlarining integratsiyasi. Atrof-muhit (Environmental), ijtimoiy mas'uliyat (Social) va korporativ boshqaruv (Governance) mezonlarini investitsiya strategiyalariga integratsiya qilish tobora keng tarqalmoqda. Ushbu tendensiya barqaror amaliyotlar uzoq muddatli moliyaviy samaradorlikni oshirishi mumkinligi haqidagi umumiy e'tirof bilan izohlanadi. Natijada investorlar potentsial investitsiya loyihalarini baholashda ularning ESG ko'rsatkichlariga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda.

Yashil moliyadagi texnologik innovatsiyalar. Texnologik taraqqiyot yashil moliya bozorining rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda. Blokcheyn va sun'iy intellekt kabi innovatsion texnologiyalar yashil moliyalashtirishda shaffoflik va samaradorlikni oshirish maqsadida joriy etilmoqda. Ushbu texnologiyalar moliyaviy resurslar harakatini aniqroq kuzatish imkonini berib, barqaror investitsiyalarning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Yashil moliya bozori 2025–2035-yillar davomida 8,72 % yillik murakkab o'sish sur'ati bilan rivojlanishi prognoz qilinmoqda. Ushbu o'sish asosan davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash choralari, investorlar talabining ortishi hamda texnologik taraqqiyot bilan izohlanadi.

Yangi imkoniyatlar quyidagi yo'nalishlarda shakllanmoqda:

qayta tiklanuvchi energiya loyihalari uchun yashil obligatsiyalarni rivojlantirish;

uglerod kreditlari savdosi platformalariga investitsiyalar kiritish;

rivojlanayotgan bozorlar uchun mo'ljallangan barqaror investitsiya fondlarini tashkil etish.

2035-yilga kelib, yashil moliya bozori global moliya tizimining asosiy tayanch yo'nalishlaridan biriga aylanishi kutilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi maqolada yashil moliya, uning mazmuni hamda barqaror kelajakni ta'minlashdagi ahamiyati yoritib berilgan. Global isish muammolari bo'yicha xabardorlikning ortib borishi va barqaror faoliyatga bo'lgan ehtiyojni inobatga olgan holda, yashil moliyalashtirishning istiqbollari ijobiy baholanmoqda. Iqlim ma'lumotlari xizmatlari va ESG (atrof-muhit, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruv) tamoyillaridan foydalanish orqali kompaniyalar va hukumatlar asosli va puxta qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu jihatdan, yashil moliyalashtirish nafaqat moliyaviy instrument, balki jamiyatni barqaror rivojlanish sari yo'naltiruvchi muhim mexanizm hisoblanadi.

Yashil moliyalashtirishni keng miqyosda rivojlantirishda manfaatdor tomonlar tashkilotlari, xalqaro institutlar va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shunday hamkorlik orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlagan holda, barqarorlikni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash orqali global ekologik maqsadlarga erishish imkoniyati yanada yaqinlashadi.

Adabiyotlar / *Ўмепамыпа* / Reference:

Chalons-Browne R, (2011) Green Financing: More than a Trend, July 20.

Green Finance Market, (2025) ID: MRFR/BS/22847-HCR 128 Pages Aarti Dhapte October.

Höhne, Khosla, Fekete and Gilbert (2012): Mapping of Green Finance Delivered by IDFC Members in 2011, Ecofys

IFC (2013): Mobilizing Public and Private Funds for Inclusive Green Growth Investment in Developing Countries - An Expanded Stocktaking Report Prepared for the G20 Development Working Group, IFC Climate Business Department; and Spratt and Griffith-Jones (2013): Mobilizing Investment for Inclusive Green Growth in Low-Income Countries, GIZ

Pricewaterhouse Coopers Consultants (PWC) (2013): Exploring Green Finance Incentives in China, PWC

Sachs, Jeffrey D. and Woo, Wing Thye and Yoshino, (2019) Naoyuki and Taghizadeh-Hesary, Farhad, Why Is Green Finance Important? (January 22).

Zadek and Flynn (2013): South-Originating Green Finance: Exploring the Potential, The Geneva International Finance Dialogues, UNEP FI, SDC, and iisd